

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASI

Baxramov Shomurodbek

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi,

Shakirova Nigora

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Iqtisodiy Statistika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy hamkorligi to'g'risidagi o'rganilgan fakt va statistikalar borasida ma'lumotlar keltirib o'tiladi

Kalit so'zlar: Iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy faoliyat, takomillashish, eksport, import, investitsiya, bojxona, statistik, metod, xalqaro.

Abstract: In this article, information is given about the studied facts and statistics about the economic cooperation of our country with foreign countries.

Key words: Economic activity, foreign economic activity, improvement, export, import, investment, customs, statistic, method, international.

Аннотация: В данной статье дана информация об изученных фактах и статистике экономического сотрудничества нашей страны с зарубежными странами.

Ключевые слова: Экономическая деятельность, внешнеэкономическая деятельность, улучшение, экспорт, импорт, инвестиции, таможня, статистика, метод, международный.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-aprelida qabul qilingan Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2018-yil 12-dekabrda qabul qilingan Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida yurtimizda chet el mamlakatlari bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilishi takomillashishni boshladi. Bu qarorda yurtimizdagi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasining asoschisi belgiyalik olim Adolf Ketleni keltirish mumkin. Chunki u birinchilardan bo'lib to'plangan statistik ma'lumotlarga statistik usullar yordamida ishlov berishni qo'llagan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi o'z ob'ektini xususiy metodlar yordamida o'rganadi: ommaviy statistik kuzatish metodi, Kuzatish ma'lumotlarni jamlash va guruxlash, Turli umulashtiruvchi (mutlaq va nisbiy miqdor, o'rtacha miqdor, indeks va hk) hisoblash.

Tashqi faoliyat statistikasi doim ommaviy mashg'ulotlarga asoslanadi. Kerakli paytda u o'zining boshlang'ich kuzatishini ham tashkil etadi. Ommaviy boshlang'ich ma'lumotlarni umumlashtirayotganda statistika maxsus usullardan foydalanadi va pirovard natijada umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlab, hodisa va voqealar to'lamiga umumiy baho beradi. Statistika har xil o'lchov birliklaridan foydalanadi. Jumladan, ko'rsatkichlarni pulda, naturada, shartli naturada va mehnat birliklarida ifodlaydi.

O'tgan yillar mobaynida tashqi iqtisodiy kompleks bo'yicha olib borilayotgan ishlar, tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi tomonlar faoliyatini bozor iqtisodiyoti prinsiplari hamda ularni liberalizatsiyalashtirish asosida olib borildi. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy savdo munosabatlari, hamda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar yanada jadallashdi.

Mamlakatning 2009-yildagi jami tashqi savdo oboroti 6689,2 mln AQSH dollarni, ya'ni 2008-yilga nisbatan 17,3% ga oshdi. Uzoq chet el mamlakatlari bilan tashqi savdo oboroti 54,3%ga oshib 2105,4 mln AQSH dollarni tashkil etdi.

2009-yil natijalariga ko'ra tashqi savdo bozori balansi manfiy saldosi 167 mln dollar yoki 2008-yilga nisbatan 135,8 mln AQSH dollarga oshdi.

So'ngi yillar ichida esa Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi hajmi yanada oshdi. 2020 va 2021-yillarda mos ravishda 8 va 7,5 mlrd AQSH dollari, 2022-yilga kelib esa 13,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etmoqda bunda 5,8 mlrd eksport va 7,4 mlrd importni ko'rsatgan.

2020 va 2022 yillar davomida asosiy savdo aylanmasi Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Korea Respublikasi hamkor davlatlar asosiy hamkor davlatlar bo'lgan. Yuqorida keltirilgan mamlakatlar ichida eng katta ulushni Xitoy va Rossiya davlatlari tashkil etgan.

Oxirgi yillar ichida mamlakatimizdagi eksportning asosiy tarkiblari quyidagilarni ko'rsatgan: 1,1 mlrd AQSH dollari sanoat tovarlari, 0,6 mlrd AQSH dollari Xizmatlar, 0,3 mlrd AQSH dollari kimyoviy moddalar, 0,2 mlrd AQSH dollari turli xil tayyor buyumlar.

Importning asosiy tarkibi esa 2,6 mlrd AQSH dollari mashina va transport asbob-uskunalari, 1,4 mlrd AQSH dollari sanoat tovarlari, 1,0 mlrd AQSH dollari kimyoviy moddalar, 0,8 mlrd AQSH dollari oziq-ovqat mahsulotlari, 0,5 mlrd AQSH dollari esa xizmatlarni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat o'z ichiga xorijiy savdo, xarajatlar, valyuta operatsiyalari, xorijiy investitsiyalar va xorijiy moliyaviy munosabatlar kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu faoliyatlar mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida xilma-xil asosiy o'rinlarga ega bo'lib, xususan xorijiy investitsiyalar orqali yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish sohasida o'zaro hamkorlikni kengaytiradi.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar va siyosiy hamkorlikni ham rivojlantirishi mumkin. Bu o'rinlarda rivojlanayotgan savdo aloqalari va investitsiyalar mamlakatlarning bir-biriga qarshi jiddiy qiziqishini o'z ichiga oladi va mustaqil siyosiy va iqtisodiy mablag'lar ustida rivojlanayotgan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xususan transport, energiya, madaniyat va agrar sohalarda katta loyihalarni boshlash

uchun samarali tartibni o'rnatmoqda. Bundan tashqari, mamlakat xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish va eksportga bo'lgan e'tiborni oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatining kengayishini ta'minlaydi va O'zbekistonni xalqaro miqyosda iqtisodiy rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning PQ-4297 son qarori. Lex.uz
2. Davlat statistika qo'mitasi "Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari"
3. N.M.Soatov, X. Nabiev, G.N.Tillaxo'jaeva.Statistika. Darslik- TDIU, 2009-568bet.
4. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi. A.X; Ayubjonov T-2004